
MAHALLADAGI TIBBIY XIZMATDAN AHOLI MINNATDOR

Prezidentimiz tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifati samaradorligi va ommabopligini oshirishga qaratilgan yuzdan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi va ular hayotga tadbiq etilmoqda. Jumladan, PF-6110 "Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari faoliyatining mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan mahalla va oilada tibbiy xizmatlar ko'rsatishning mutlaqo yangi tizimi tashkil etildi. Tumanimizdagi mavjud oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlaridagi umumiy amaliyot shifokorlari oilaviy shifokorlarga aylantirilib, oilada maqsadli tibbiy xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan tibbiy brigadalar tashkil etildi. Ularning soni hozirgi kunda 102 tadan iborat. Tarkibida oilaviy shifokor, amaliyot patranaj va doya hamshiralardan iborat mazkur brigadalar tomonidan tuman aholisi to'liq tibbiy xatlov ko'rikdan o'tkazildi va ular salomatlik darajasiga qarab sog'lom (tayanch), passiv, o'rta va yuqori xavf guruhlariga ajratildi. Bu xatlov bizga mahalla, oiladagi maqsadli tibbiy xizmatni tashkil etish yo'l xaritasini tuzishga imkon berdi. Tayanch (sog'lom) guruhdagi aholiga sog'lom hayot tarzini davom ettirish, ya'ni jismoniy faollik va sog'lom ovqatlanish, past xavf guruhida kasallik kelib chiqishiga olib keluvchi xavf omillarini bartaraf qilish choralari ko'rish, o'rta va yuqori xavf omili bo'lgan bemorlarga brigada tomonidan oilada sog'lomlashtirish rejalari tuzib, ularga zarur davo muolajalari qilinyapti hamda mavjud xavf omillarini bartaraf qilish maslahatlari berilyapti. Bunda 40 va undan katta yoshdagi aholiga asosiy e'tiborni qaratib, ayrim yuqumli bo'lmagan yurak-qon tomir, asab, qandli diabet, o'sma kabi kasalliklar kelib chiqishi ehtimoli bo'lganligi sababli ularni doimiy skriningdan o'tkazib boryapmiz. Tumanimizdagi birlamchi tibbiy muassasalarning moddiy texnik bazasi yildan-yilga yaxshilanyapti. Birgina shu yilning o'zida Yoyilma, Qayrag'och Oilaviy shifokorlik punktlari binosi yangidan qurib bitkazildi. Amirobod oilaviy shifokorlik punkti mukammal ta'mirlandi. Jalaer qishlog'ida 100-sonli Oilaviy Poliklinika yangidan tashkil etildi va binosi ta'mirlandi. Cho'ng'ara qishlog'ida "Zilol" Oilaviy shifokorlik punkti va O'yratdagi 44-sonli oilaviy poliklinika binosida yangidan qurilish ishlari boshlandi. Oqtomir hamda So'xobod qishloqlarida tibbiy punktlar tashkil etildi. Bu sa'yi harakatlar tufayli ayrim kasalliklarni erta aniqlash va ularni o'z vaqtida davolashga erishilmoqda. Yuqori xavf guruhi bor bemorlarga xonadonlarida davo muolajalari o'tkazilishi tufayli ular tibbiy xizmatlardan minnatdor. Sog'liqni saqlash yo'nalishlari bo'yicha shikoyatlar kamayishiga erishilmoqda. Fursatdan foydalanib, barcha tumanimiz aholisini mustaqillik bayrami bilan muborakbod etaman va ularga sog'lik salomatlik tilayman!

Avazbek USMANOV,
Rishton tuman tibbiyot
birlashmasi boshlig'i.

2022-08-16 16:11:12